
Methodological foundations of blended learning technology in teaching English

Fayziyev Alisher Fathiddin ugli
aliwfayziyev@gmail.com

Teacher,

Uzbekistan State World Languages University

Eshboyev Abdushukur Berdinazarovich
abdushukureshboyev@gmail.com

Teacher,

Uzbekistan State World Languages University

Annotation

This article analyzes the methodological foundations of blended learning technology in teaching English. In modern education, the integration of traditional and digital environments has become an important factor of effectiveness. The aim of the study is to systematize the theoretical and methodological foundations, principles, models, advantages, and limitations of blended learning. Methods such as literature review, comparative analysis, and thematic analysis were applied. The results show that the effectiveness of blended learning depends not only on digital tools but also on the alignment of learning objectives, content, interactivity, feedback, and pedagogical management. This technology demonstrates high effectiveness in developing listening, writing, speaking, vocabulary, and collaborative skills. However, poorly designed courses may lead to decreased motivation, digital inequality, and cognitive overload. In addition, learners' individual characteristics and access to technology significantly influence outcomes. The teacher's methodological preparation and digital competence are also essential factors. The findings contribute to developing practical recommendations for improving educational processes. In conclusion, blended learning is a promising model for English language teaching when properly designed and implemented.

Keywords

Blended learning, teaching English, blended learning, methodological foundation, digital pedagogy, Community of Inquiry, instructional design, foreign language education

Ingliz tilini o'qitishda aralash ta'lim texnologiyasining metodik asoslari

Fayziyev Alisher Fathiddin o'g'li
aliwfayziyev@gmail.com

O'qituvchi,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Eshboyev Abdushukur Berdinazarovich
abdushukureshboyev@gmail.com

O'qituvchi,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Annotatsiya

Mazkur maqolada ingliz tilini o'qitishda aralash ta'lim texnologiyasining metodik asoslari tahlil qilinadi. Zamonaviy ta'limda an'anaviy va raqamli muhitlarni integratsiyalash samaradorlikning muhim omiliga aylangan. Tadqiqot maqsadi – aralash ta'limning nazariy-metodik asoslari, tamoyillari, modellari, afzallik va

cheklovlarini tizimlashtirish. Adabiyotlar tahlili, qiyosiy va tematik tahlil usullari qo'llanilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, aralash ta'lim samaradorligi raqamli vositalar bilan birga o'quv maqsadlari, kontent, interaktivlik, teskari aloqa va pedagogik boshqaruv uyg'unligiga bog'liq. Bu texnologiya tinglab tushunish, yozish, gapirish, lug'at va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishda yuqori samara beradi. Biroq noto'g'ri rejalashtirilgan kurslar motivatsiyaning pasayishi, raqamli tengsizlik va kognitiv yuklama kabi muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Shuningdek, o'quvchilarning individual xususiyatlari va texnologik imkoniyatlari ham natijaga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, o'qituvchining metodik tayyorgarligi va raqamli savodxonligi muhim omil hisoblanadi. Tadqiqot natijalari ta'lim jarayonini yanada samarali tashkil etish uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi. Xulosa qilib aytganda, aralash ta'lim ingliz tilini o'qitishda istiqbolli model bo'lib, u metodik dizayn, o'qituvchi kompetensiyasi va tizimli monitoring asosida tashkil etilganda samarali bo'ladi.

Kalit so'zlar *Aralash ta'lim, ingliz tilini o'qitish, blended learning, metodik asos, raqamli pedagogika, Community of Inquiry, o'quv dizayni, chet tili ta'limi*

Методические основы технологии смешанного обучения в преподавании английского языка

Файзиев Алишер Фатхиддин угли
aliwfayziev@gmail.com
Преподаватель,
Узбекский государственный университет
мировых языков

Эшбоев Абдушукур Бердиназарович
abdushukureshboyev@gmail.com
Преподаватель,
Узбекский государственный университет
мировых языков

Аннотация *В данной статье анализируются методические основы технологии смешанного обучения при преподавании английского языка. В современной образовательной системе интеграция традиционной и цифровой среды становится важным фактором эффективности. Цель исследования заключается в систематизации теоретико-методических основ, принципов, моделей, преимуществ и ограничений смешанного обучения. В работе использованы методы анализа научной литературы, сравнительного и тематического анализа. Результаты показывают, что эффективность смешанного обучения зависит не только от цифровых инструментов, но и от согласованности учебных целей, содержания, интерактивности, обратной связи и педагогического управления. Данная технология способствует развитию навыков аудирования, письма, говорения, словарного запаса и сотрудничества. Однако недостаточно продуманный дизайн курса может привести к снижению мотивации, цифровому неравенству и когнитивной перегрузке. Также значительную роль играют индивидуальные особенности обучающихся и их доступ к*

технологиям. Важным фактором является методическая подготовка и цифровая компетентность преподавателя. Полученные результаты могут быть использованы для разработки практических рекомендаций по совершенствованию учебного процесса. В заключение отмечается, что смешанное обучение является перспективной моделью при условии грамотной организации и реализации.

Ключевые слова

Смешанное обучение, обучение английскому языку, смешанное обучение, методическая основа, цифровая педагогика, сообщество исследования, педагогический дизайн, обучение иностранному языку

Kirish

Ta'lim tizimining raqamli transformatsiyasi chet tillarini, xususan ingliz tilini o'qitish metodikasiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. So'nggi yillarda auditoriya mashg'ulotlari bilan onlayn faoliyatlarni uyg'unlashtiruvchi aralash ta'lim modeli alohida e'tibor markaziga aylandi. Ilmiy adabiyotlarda aralash ta'lim turlicha talqin qilinsa-da, eng ko'p qabul qilingan yondashuv uni yuzma-yuz ta'lim tajribasi bilan kompyuter vositasida tashkil etilgan o'qitish jarayonining maqsadli integratsiyasi sifatida izohlanadi. Aynan "maqsadli integratsiya" tushunchasi mazkur texnologiyaning metodik mohiyatini belgilaydi: bunda onlayn va an'anaviy komponentlar bir-birini takrorlamaydi, balki didaktik jihatdan to'ldiradi.

Aralash ta'lim tushunchasi kengligi sababli ba'zan "soyabon termin" sifatida ham qo'llanadi. Hrastinski (2019) bu atama ostida turli nisbatdagi onlayn va oflayn o'qitish, turli vosita va metodlarning kombinatsiyasi tushunilishini ta'kidlaydi. Biroq ilmiy va amaliy jihatdan foydali yondashuv shundaki, aralash ta'lim shunchaki texnologik qo'shimcha emas, balki ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan metodik qayta dizayn sifatida talqin qilinishi kerak. Garrison va Kanuka (2004) ham aralash ta'limni mavjud darsni raqamli vositalar bilan bezash emas, balki o'qitish va o'rganish munosabatlarini qayta tashkil etish deb izohlaydi. Bu yondashuv ingliz tilini o'qitishda

ayniqsa muhim, chunki til o'rganish jarayoni ko'pkanallilik, muntazam mashq, aloqa, refleksiya va autentik muloqot muhitini talab qiladi.

Ingliz tilini o'qitishda aralash ta'limning ahamiyati bir necha omillar bilan izohlanadi. Birinchidan, u til ko'nikmalarini rivojlantirish uchun sinxron va asinxron faoliyatlarni uyg'unlashtirish imkonini beradi. Ikkinchidan, o'quvchi individual tempda ishlashi, materialni qayta ko'rishi va mustaqil mashq qilishi mumkin. Uchinchidan, auditoriyada asosan kommunikativ, muammoli va hamkorlikka asoslangan topshiriqlarga ko'proq vaqt ajratish imkoni paydo bo'ladi. Adabiyotlarda aralash modelning ingliz tili kurslarida o'quv natijalari, til ko'nikmalari va umumiy kurs samaradorligiga ijobiy ta'siri qayd etilgan bo'lsa-da, bu ta'sir barcha sharoitda avtomatik yuz bermasligi, balki metodik dizayn sifati bilan chambarchas bog'liqligi ko'rsatiladi.

Shu nuqtai nazardan, mazkur maqolaning asosiy muammosi quyidagicha ifodalanadi: ingliz tilini o'qitishda aralash ta'lim texnologiyasining haqiqiy metodik asoslari nimalardan iborat va samarali natijaga erishish uchun qaysi pedagogik shartlar zarur? Tadqiqotning maqsadi aralash ta'limning nazariy-metodik asoslarini tahlil qilish, ingliz tili ta'limiga xos modellar va tamoyillarni aniqlash, shuningdek amaliyot uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot savollari quyidagicha belgilandi: 1) aralash ta'limning

ilmiy-nazariy mohiyati qanday? 2) ingliz tilini o'qitishda uning metodik komponentlari qaysilar? 3) qaysi omillar aralash model samaradorligini belgilaydi. 4) ushbu yondashuvning amaliy cheklovlari va istiqbollari nimadan iborat?

Metodlar

Mazkur tadqiqot nazariy xarakterga ega bo'lib, unda sifatli adabiyotlar tahlili usuli qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida aralash ta'lim va ingliz tilini o'qitish bo'yicha tayanch nazariy ishlar, tizimli sharhlar, empirik maqolalar va konseptual manbalar o'rganildi. Manbalarni tanlashda uch mezon asos qilib olindi: birinchisi, manbaning mavzuga bevosita aloqadorligi; ikkinchisi, ilmiy ishonchliligi va indekslangan nashrda chop etilgani; uchinchisi, aralash ta'limning pedagogik, metodik yoki til o'qitish bilan bog'liq jihatlarni ochib berishi. Tahlil uchun asosiy manbalar sifatida Garrison va Kanuka (2004), Graham (2006), Garrison va Vaughan (2008), Hrastinski (2019), Akyol, Garrison va Ozden (2009), Jiang va boshqalar (2021), Ghufon va Nurdianingsih (2019), Cheng (2022), Chen va Jumaat (2023), Alenazi (2023), Tabassum va Saad (2024), shuningdek Müller va Mildemberger (2021) kabi akademiklar va ilmiy izlanuvchilarning ishlari tanlandi.

Tadqiqot uch bosqichda olib borildi. Birinchi bosqichda aralash ta'limning ta'riflari, modellari va nazariy asoslari bo'yicha konseptual tahlil amalga oshirildi. Ikkinchi bosqichda ingliz tilini o'qitishga doir empirik va sharh maqolalar tahlil qilinib, ulardan metodik jihatdan muhim kategoriyalar ajratib olindi. Uchinchi bosqichda olingan natijalar tematik sintez asosida umumlashtirildi. Tematik kodlash jarayonida quyidagi bloklar shakllantirildi: a) aralash ta'limning mohiyati; b) metodik dizayn tamoyillari; c) til ko'nikmalari bo'yicha qo'llanish; d) o'qituvchi va o'quvchi roli; e) muammolar va xavf omillari. Mazkur usul nazariy va empirik qarashlarni yagona metodik model doirasida tahlil qilish imkonini berdi.

Metodologik nuqtai nazardan, tadqiqot interpretativ-sintezlovchi yondashuvga

asoslandi. Bu yondashuv turli mualliflarning qarashlarini bir-biriga qarama-qarshi qo'yish emas, balki ular orasidagi umumiylik va farqlarni aniqlashga xizmat qildi. Ayniqsa, aralash ta'limni samarali tashkil etishda "Community of Inquiry" modeli, o'quvchi avtonomiyasi, refleksiya, teskari aloqa va faol o'qitish tamoyillarining tutgan o'rni alohida ko'rib chiqildi. Shuningdek, til o'qitish metodikasidagi kommunikativ yondashuv, vazifaga asoslangan o'qitish va "flipped classroom" elementlarining aralash ta'lim bilan qanday uyg'unlashishi izohlandi.

Mazkur tadqiqotning chegarasi shundaki, u eksperimental amaliyot emas, balki ilmiy adabiyotlarga asoslangan nazariy tahlildir. Shu sababli maqola natijalari umumlashtirilgan metodik xulosalarni beradi, biroq aniq bir oliy ta'lim muassasasi yoki maktab kontekstida statistik tekshiruv vazifasini bajarmaydi. Shunga qaramay, tahlil qilingan manbalar soni va ularning mavzuga yaqinligi asosiy metodik tendensiyalarni ishonchli tarzda aniqlash imkonini berdi.

Natijalar

Tahlil natijalariga ko'ra, ingliz tilini o'qitishda aralash ta'limning birinchi metodik asosi – integrativlik tamoyilidir. Bu tamoyilga ko'ra, auditoriya va onlayn faoliyatlar o'zaro mustaqil ikki blok sifatida emas, balki yagona o'quv tizimining funksional qismlari sifatida loyihalanadi. Garrison va Kanuka (2004) aralash ta'limni "o'ylangan integratsiya" deb ataydi; Hrastinski (2019) esa samarali model uchun "nima, qanday va nima sababdan aralashtirilayotgani" aniq belgilanishi kerakligini ta'kidlaydi. Demak, metodik dizaynning markazida texnologiya emas, balki o'quv maqsadi turadi. Ingliz tili ta'limida bu shuni anglatadiki, masalan, grammatika yoki lug'atga oid tayanch materiallar asinxron onlayn formatga ko'chirilishi, auditoriya vaqti esa kommunikativ mashqlar, bahs-munozara, juftlik va guruh ishlari uchun ajratilishi mumkin.

Ikkinchi muhim metodik asos – pedagogik maqsadga mos modelashtirishdir. Tahlil qilingan manbalarda aralash ta'limning yagona

universal modeli yo'qligi, aksincha turli o'quv vaziyatlari uchun turli konfiguratsiyalar qo'llanilishi ko'rsatiladi. Chen va Jumaat (2023) ingliz tili kurslari bo'yicha tizimli sharhida aralash kurs dizaynining samaradorligi asosan to'rtta omilga bog'liqligini ko'rsatadi: kurs tuzilishi, ishtirokchilar xususiyatlari, qo'llanilgan texnologiyalar va o'quv natijalari. Bu esa o'qituvchi aralash modelni tayyor andoza sifatida emas, balki maqsad, kontent, auditoriya va baholashga mos ravishda moslashtiriladigan metodik konstruktsiya sifatida ko'rihi zarurligini anglatadi.

Uchinchi asos – ijtimoiy, kognitiv va o'qituvchilik mavjudligining uyg'unligi hisoblanadi. "Community of Inquiry" yondashuvi aralash ta'limni tushuntirishda eng kuchli nazariy poydevorlardan biridir. Akyol, Garrison va Ozden (2009) onlayn va aralash muhitlarni qiyosiy tahlil qilar ekan, aralash formatda ijtimoiy va kognitiv mavjudlik ko'rsatkichlari yuqoriroq namoyon bo'lishini qayd etadi. Keyingi sharhlarda ham aralash ingliz tili kurslarida ijtimoiy aloqadorlik, o'qituvchi yo'naltirishi va mazmunli muhokamaning o'quv natijalariga sezilarli ta'sir ko'rsatishi tasdiqlangan. Bu natija ingliz tilini o'qitishda ayniqsa ahamiyatli, chunki tilni o'rganish aloqadorlik, muloqot va hamkorlikda ma'no qurishga tayanadi.

To'rtinchi asos – o'quvchi avtonomiyasi va o'zini boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirishdir. Aralash ta'lim o'quvchiga vaqt va resurslarni nisbatan erkin boshqarish imkonini beradi, biroq bu erkinlik metodik qo'llab-quvvatlovsiz samara bermaydi. Ghufon va Nurdianingsih (2019) flipped-CALL modeli asosida tashkil etilgan EFL yozuv darslarida o'quvchilarning avtonomiyasi, muloqoti va motivatsiyasi oshganini ko'rsatadi. Xuddi shunday, tinglab tushunish bo'yicha Jiang va boshqalar (2021) olib borgan tadqiqotda Quizlet asosidagi onlayn-oflayn integratsiya o'quvchilarning nafaqat natijalariga, balki qiziqishi va strategik faoliyatiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Bundan kelib chiqadiki, aralash ta'limning metodik

kuchi mustaqil ishlashni oddiy "uyga vazifa" darajasida emas, balki boshqariladigan va teskari aloqa bilan boyitilgan o'quv faoliyatiga aylantirishidir.

Beshinchi asos – til ko'nikmalariga mos differensial qo'llanilishdir. Tahlil shuni ko'rsatadiki, aralash ta'lim ingliz tilining barcha ko'nikmalariga bir xil emas, balki turlicha mexanizm orqali ta'sir ko'rsatadi. Tinglab tushunishda onlayn platformalar takror eshitish, individual temp va mikro-mashqlar uchun qulay; yozishda esa raqamli platformalar rejalashtirish, tahrirlash va kooperativ yozuvni qo'llab-quvvatlaydi; gapirish va muloqot ko'nikmalarida esa auditoriyadagi sinxron interaksiya etakchi rol o'ynaydi. Secondary school o'qituvchilari ishtirokidagi tadqiqotda blended modeldan foydalanish sabablari orasida resurslarning ko'pligi, motivatsiya, moslashuvchanlik va o'quvchilarni faolroq jalb qilish omillari ajratib ko'rsatilgan. Bu esa metodik jihatdan shuni anglatadiki, aralash ta'limda har bir til ko'nikmasi uchun eng mos muhit va faoliyat turi tanlanishi lozim.

Oltinchi asos – baholash va teskari aloqaning uzluksizligidir. Aralash ta'lim samaradorligi faqat kontent taqdimoti bilan emas, balki formatif baholashning sifatiga ham bog'liq. Onlayn platformalar avtomatlashtirilgan testlar, tezkor kuzatuv, topshiriq loglari va mikrobaholash imkonini bersa, auditoriya mashg'ulotlari og'zaki tahlil, izohlash va refleksiya uchun qulaydir. Shuning uchun samarali aralash kursda baholash ikki muhit o'rtasida uzviy bog'langan bo'lishi kerak: onlayn topshiriq natijasi auditoriyadagi muhokamaga olib kiradi, auditoriyadagi xatolar esa keyingi onlayn mashqlarda mustahkamlanadi. Adabiyotlarda aynan shu uzluksizlik ta'lim sifatini oshiruvchi omil sifatida qayd etilgan.

Yettinchi asos – o'qituvchining raqamli-pedagogik kompetensiyasidir. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, aralash ta'limda o'qituvchi roli kamaymaydi; aksincha, u murakkablashadi. O'qituvchi endilikda kontent etkazuvchi emas, balki o'quv dizayneri, moderator, fasilitator va

teskari aloqa beruvchi sifatida faoliyat yuritadi. Garrison va Vaughan (2008) aralash ta'limda kursni qayta loyihalash, aniq tamoyillar asosida tashkil etish va o'qituvchining boshqaruv rolini ta'kidlaydi. Agar o'qituvchi texnologiyani pedagogik maqsad bilan bog'lay olmasa, raqamli vositalarning o'zi yuqori natija bermaydi. Demak, metodik asoslar ichida o'qituvchining texnologik-pedagogik savodxonligi markaziy o'rin tutadi.

Sakkizinchi natija sifatida aralash ta'limning samaradorligi nisbiy ekani aniqlandi. Müller va Mildenerger (2021) tomonidan o'tkazilgan tizimli sharh va meta-tahlil blended model sinf vaqtini 30-79 foizgacha qisqartirish sharoitida ham an'anaviy ta'lim bilan teng yoki unga yaqin natija berishi mumkinligini ko'rsatadi; ammo bu natija avtomatik ustunlik emas, balki puxta rejalashtirilgan kurs dizayni bilan bog'liq. Shuningdek, Saudiya universitetlari bo'yicha tizimli sharh blended modellar ingliz tili natijalariga ko'pincha ijobiy ta'sir ko'rsatishini bildiradi, lekin muallif amaliyotda metodik nomuvofiqlik va texnologik to'siqlar ham mavjudligini qayd etadi. Shundan kelib chiqib, aralash ta'limni "har doim eng yaxshi model" deb emas, balki "mos sharoitda yuqori samarali model" deb baholash ilmiy jihatdan to'g'riroq bo'ladi.

Muhokama

Olingan natijalar ingliz tilini o'qitishda aralash ta'limning metodik asosi uch yirik blokdan iborat ekanini ko'rsatadi: nazariy-konseptual asos, didaktik-dizayn asos va tashkiliy-pedagogik asos. Nazariy-konseptual asos aralash ta'limni oddiy "onlayn + auditoriya" yig'indisi emas, balki o'quv maqsadiga yo'naltirilgan integrativ tizim sifatida talqin qilishga tayanadi. Didaktik-dizayn asos esa qaysi komponent qaysi muhitda samaraliroq amalga oshishini belgilaydi. Tashkiliy-pedagogik asos esa o'qituvchi roli, teskari aloqa, monitoring, baholash va o'quvchi qo'llab-quvvatlovini qamrab oladi. Demak, aralash ta'limning metodik muvaffaqiyati texnologiyadan ko'ra ko'proq dizayn mantig'iga bog'liq.

Bu xulosalar kommunikativ til o'qitish nazariyasi bilan ham mos keladi. Chunki kommunikativ yondashuv tilni tayyor qoidalar yig'indisi emas, balki real aloqa vositasi sifatida ko'radi. Aralash ta'lim aynan shu nuqtada kuchli metodik imkoniyat yaratadi: reproduktiv, tayyorlovchi va individual mashqlar onlayn muhitda bajarilib, sinfdagi qimmatli vaqt interaktiv va kommunikativ faoliyatga sarflanadi. Bunday model "flipped classroom" tamoyillariga yaqinlashadi va ayniqsa yozuv, tinglab tushunish hamda og'zaki nutqni uyg'un rivojlantirishda foydalidir. Ghufroon va Nurdianingsih (2019) yozuv darslarida, Jiang va boshqalar (2021) esa tinglash darslarida aynan shu integrativ mexanizm samaradorligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, aralash ta'limni joriy etishda bir qator metodik xatolardan qochish lozim. Birinchisi, onlayn komponentni ortiqcha yuklangan platforma faoliyatiga aylantirish. Agar onlayn topshiriqlar maqsadsiz ko'payib ketsa, o'quvchi uchun kognitiv yuklama oshadi va motivatsiya pasayadi. Ikkinchisi, auditoriya va onlayn faoliyatlar o'rtasidagi semantik bog'liqlikning yo'qligi. Masalan, onlayn bajarilgan topshiriq keyingi darsga ulanmasa, o'quvchi uni asosiy o'qish jarayonining bir qismi sifatida qabul qilmaydi. Uchinchi xato, o'qituvchining raqamli platformani nazorat va aloqa vositasi sifatida samarali ishlata olmasligidir. Bu holatlar aralash ta'limning afzalliklarini zaiflashtiradi va uni formal shaklga aylantiradi.

Aralash ta'limning muvaffaqiyatli bo'lishi uchun o'quvchi omili ham alohida e'tiborni talab qiladi. O'quvchilarning o'zini boshqarish, vaqtni rejalashtirish, raqamli platformalarda ishlash va refleksiya ko'nikmalari etarli bo'lmasa, aralash kursning sifati pasayadi. Shu sababli boshlang'ich bosqichda qisqa yo'riqnoma, aniq navigatsiya, vazifalarning ochiq mezonlari va muntazam teskari aloqa zarur. Aralash ta'lim o'quvchidan nisbatan yuqori mas'uliyat talab qilgani uchun metodik yordam mexanizmlari kurs dizaynining ajralmas qismi bo'lishi kerak.

Ingliz tilini o'qitish amaliyotiga tatbiqan quyidagi metodik model maqsadga muvofiq deb hisoblanadi: 1) pre-class bosqichida qisqa video, matn, lug'at va tayanch grammatik bloklar; 2) in-class bosqichida muhokama, rol o'ynash, juftlik va guruhli topshiriqlar, fikr almashish va kommunikativ vazifalar; 3) post-class bosqichida refleksiya, test, mini-esse, forum yoki raqamli portfel orqali mustahkamlash. Bunday uch bosqichli model auditoriya va onlayn muhitni maqsadli ravishda bog'laydi hamda o'quv jarayonini uzluksiz qiladi. Tahlil qilingan adabiyotlar aynan shu turdagi dizaynlarning eng barqaror va samarali ekanini ko'rsatadi.

Mazkur tadqiqot natijalari metodistlar va amaliyotchilar uchun ham muhim xulosa beradi: aralash ta'lim texnologiyasini joriy etish alohida platforma tanlashdan boshlanmasligi kerak. Avvalo, kursning til maqsadlari, kommunikativ natijalari, baholash mezonlari va o'quvchi profili aniqlanadi; shundan keyingina qaysi texnologik vositalar ayni maqsadga xizmat qilishi belgilanadi. Boshqacha aytganda, "pedagogika texnologiyani boshqarishi kerak, texnologiya pedagogikani emas". Mazkur prinsip aralash ta'limning metodik asoslarini tushunishda eng muhim qoidalardan biridir.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, ingliz tilini o'qitishda aralash ta'lim texnologiyasining metodik asoslari integrativlik, maqsadga yo'naltirilgan o'quv dizayni, ijtimoiy-kognitiv-

o'qituvchilik mavjudligi, o'quvchi avtonomiyasi, differensial ko'nikma rivoji, uzluksiz baholash va o'qituvchining raqamli-pedagogik kompetensiyasiga tayangan holda shakllanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, aralash ta'lim ingliz tili ta'limida yuqori samaradorlik berishi mumkin, biroq bu samara texnologiyaning o'zi bilan emas, balki uni qanday metodik mantiq asosida qo'llash bilan belgilanadi.

Shuningdek, aralash ta'lim auditoriya va onlayn muhitning eng kuchli tomonlarini birlashtirish orqali til o'rganishni moslashuvchan, faol va refleksiv jarayonga aylantiradi. U tinglash, yozish, gapirish va lug'atni rivojlantirishda, ayniqsa, katta didaktik imkoniyatlarga ega. Biroq metodik rejalashtirish sust bo'lsa, u motivatsiya pasayishi, raqamli tengsizlik va fragmentatsiya kabi salbiy oqibatlarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Shu bois ingliz tili o'qituvchisi blended modelni joriy etishda kurs maqsadi, o'quvchi profili, platforma funksiyasi va baholash tizimini yagona dizayn ichida ko'rishi lozim.

Kelgusida ushbu mavzu doirasida O'zbekiston ta'lim muassasalari kontekstida eksperimental tadqiqotlar o'tkazish, turli yosh va tayyorgarlik darajasidagi o'quvchilarda aralash ta'lim modellarining qiyosiy samaradorligini aniqlash, shuningdek sun'iy intellekt vositalari bilan boyitilgan blended English kurslarining metodik salohiyatini o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi.

References:

1. Akyol, Z., Garrison, D. R., & Ozden, M. Y. (2009). Development of a community of inquiry in online and blended learning contexts. *Procedia - Social and Behavioral Sciences*, 1(1), 1834–1838. <https://doi.org/10.1016/j.sbspro.2009.01.324>
2. Alenazi, Y. R. (2023). Effectiveness of blended learning programs/models in English instruction in Saudi universities: A systematic review of literature. *Arab World English Journal*, 14(4), 169–188. <https://doi.org/10.24093/awej/vol14no4.10>
3. Chen, Y., & Jumaat, N. F. B. (2023). Blended learning design of English language course in higher education: A systematic review. *International Journal of Information and Education Technology*, 13(2), 364–372. <https://doi.org/10.18178/ijiet.2023.13.2.1815>

4. Cheng, G. (2022). Using the community of inquiry framework to support and analyse BYOD implementation in the blended EFL classroom. *The Internet and Higher Education*, 54, 100854. <https://doi.org/10.1016/j.iheduc.2022.100854>
5. Garrison, D. R., & Kanuka, H. (2004). Blended learning: Uncovering its transformative potential in higher education. *The Internet and Higher Education*, 7(2), 95–105. <https://doi.org/10.1016/j.iheduc.2004.02.001>
6. Garrison, D. R., & Vaughan, N. D. (2008). *Blended learning in higher education: Framework, principles, and guidelines*. Jossey-Bass. <https://doi.org/10.1002/9781118269558>
7. Ghufuron, M. A., & Nurdianingsih, F. (2019). Flipped teaching with CALL in EFL writing class: How does it work and affect learner autonomy? *European Journal of Educational Research*, 8(4), 983–997. <https://doi.org/10.12973/eu-jer.8.4.983>
8. Graham, C. R. (2006). Blended learning systems: Definition, current trends, and future directions. In C. J. Bonk & C. R. Graham (Eds.), *The handbook of blended learning: Global perspectives, local designs*. 3–21. Pfeiffer.
9. Hrastinski, S. (2019). What do we mean by blended learning? *TechTrends*, 63, 564–569. <https://doi.org/10.1007/s11528-019-00375-5>
10. Jiang, Y., Chen, Y., Lu, J., & Wang, Y. (2021). The effect of the online and offline blended teaching mode on English as a foreign language learners' listening performance in a Chinese context. *Frontiers in Psychology*, 12, 742742. <https://doi.org/10.3389/fpsyg.2021.742742>
11. Ling, S.-E., & Muuk, M. A. (2015). Blended learning in teaching secondary schools' English: A preparation for tertiary science education in Malaysia. *Procedia - Social and Behavioral Sciences*, 167, 293–300. <https://doi.org/10.1016/j.sbspro.2014.12.677>
12. Müller, C., & Mildenberger, T. (2021). Facilitating flexible learning by replacing classroom time with an online learning environment: A systematic review of blended learning in higher education. *Educational Research Review*, 34, 100394. <https://doi.org/10.1016/j.edurev.2021.100394>
13. Tabassum, Z. A., & Saad, M. R. (2024). A decadal examination of community of inquiry and blended learning in EFL/ESL development: A systematic review. *Arab World English Journal*, 15(1), 401–422. <https://doi.org/10.24093/awej/vol15no1.25>